

“Sharqiy” xab - Farg‘ona vodiysi shaharlaridan foyda bilan sayohat qiling

2021 29 Dekabr

Uzbekistan Airways tomonidan “Sharqiy” xab tashkil etilishining asosiy maqsadi – Farg‘ona vodiysidan talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha parvoz qilish uchun shart-sharoitlar yaratish. Loyihaga ko‘ra, aviakompaniya mintaqadan Rossiya Federatsiyasi va Farg‘ona vodiysi aholisi orasida mashhur bo‘lgan uzoq xorij shaharlariga yo‘nalish tarmog‘ini kengaytirish maqsadida Namangan va Farg‘ona shaharlarining xalqaro aeroportlaridan foydalanadi.

2022-yilning 31-yanvaridan boshlab aviakompaniya Uzbekistan Airways Express havo kemalarida Full Economy (to‘liq iqtisodiy sinf) tamoyili asosida Namangandan Moskva, Perm, Samara, Omsk, Orenburg, Irkutsk, Krasnodar va Yekaterinburgga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirishni boshlaydi. Talab oshgani sayin, Namangandan yo‘nalish tarmog‘ini kengaytirish ham ko‘rib chiqiladi.

Shuni ham ta‘kidlash joizki, hozirgi vaqtda Farg‘ona shahar xalqaro aeroportidan Moskva, Qozon va Istanbulga aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda, va bu “Sharqiy” xab tashkil etilishining birinchi bosqichi bo‘lib xizmat qildi. “Sharqiy” xabni rivojlantirishning ikkinchi bosqichi yakunlangach – Namangandan parvozlarni amalga oshirish boshlangandan so‘ng, Uzbekistan Airways uchinchi bosqichga – Farg‘ona shahridan parvozlarni ko‘paytirish, shuningdek Farg‘ona xalqaro aeroportidan yo‘nalish tarmog‘ini kengaytirishga o‘tadi. Shu bilan birga, Farg‘onadan parvozlarni faqat klassik (biznes va iqtisodiy sinflar) aviaqatnovlar asosida tashkil etiladi.

Bugungi kundagi Namangan shahridan Rossiya Federatsiyasi shaharlariga yo‘nalishlar bo‘yicha parvozlarni uchun aviachiptalar narxi va aviaqatnov kunlari quyidagicha:

Namangan – Moskva – Namangan parvozlari haftasiga besh marta – dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlari amalga oshiriladi:

- Namangan – Moskva, bagajsiz, qaytarilmaydigan aviachipta: 1 582 000 so‘mdan.
- Namangan – Moskva, bagaj bilan, qaytariladigan aviachipta: 1 717 000 so‘mdan 15 kg bepul yuk tashish normasi bilan.

Namangan – Perm – Namangan, parvozlari shanba kunlari amalga oshiriladi:

- Namangan – Perm, bagajsiz, qaytarilmaydigan aviachipta: 1 816 000 so‘mdan.
- Namangan – Perm, bagaj bilan, qaytariladigan aviachipta: 2 023 000 so‘mdan 15 kg bepul yuk tashish normasi bilan.

Namangan – Samara – Namangan, parvozlari shanba haftasiga ikki marta – yakshanba, dushanba, chorshanba, payshanba (keyingi kunga o‘tadigan tungi parvozlari) kunlari amalga oshiriladi:

- Namangan – Samara, bagajsiz, qaytarilmaydigan aviachipta: 1 728 000 so‘mdan.
- Namangan – Samara, bagaj bilan, qaytariladigan aviachipta: 1 899 000 so‘mdan 15 kg bepul yuk tashish normasi bilan.

Namangan – Omsk – Namangan, parvozlari juma kunlari amalga oshiriladi:

- Namangan – Omsk, bagajsiz, qaytarilmaydigan aviachipta: 1 829 000 so‘mdan.
- Namangan – Omsk, bagaj bilan, qaytariladigan aviachipta: 2 036 000 so‘mdan 15 kg bepul yuk tashish normasi bilan.

Namangan – Orenburg – Namangan, parvozlari dushanba kunlari amalga oshiriladi:

- Namangan – Orenburg, bagajsiz, qaytarilmaydigan aviachipta: 1 838 000 so‘mdan.
- Namangan – Orenburg, bagaj bilan, qaytariladigan aviachipta: 2 046 000 so‘mdan 15 kg bepul yuk tashish normasi bilan.

Namangan – Irkutsk – Namangan, parvozlari chorshanba kunlari amalga oshiriladi:

- Namangan – Irkutsk, bagajsiz, qaytarilmaydigan aviachipta: 2 053 000 so‘mdan.
- Namangan – Irkutsk, bagaj bilan, qaytariladigan aviachipta: 2 297 000 so‘mdan 15 kg bepul yuk tashish normasi bilan.

Namangan – Krasnodar – Namangan, parvozlarda payshanba kunlari amalga oshiriladi:

- Namangan – Krasnodar, bagajsiz, qaytarilmaydigan aviachipta: 1 813 000 soʻmdan.
- Namangan – Krasnodar, bagaj bilan, qaytariladigan aviachipta: 2 008 000 soʻmdan 15 kg bepul yuk tashish normasi bilan.

Namangan – Yekaterinburg – Namangan, parvozlarda payshanba/juma (keyingi kunga oʻtadigan tungi parvoz) kunlari amalga oshiriladi:

- Namangan – Yekaterinburg, bagajsiz, qaytarilmaydigan aviachipta: 1 869 000 soʻmdan.
- Namangan – Yekaterinburg, bagaj bilan, qaytariladigan aviachipta: 2 052 000 soʻmdan 15 kg bepul yuk tashish normasi bilan.

Narxlar 29.12.2021 y. holatiga koʻra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.

Telegram: t.me/uzbekistanairways